

## O‘ZBEK ADABIYOTIDA G‘AZALLAR JILOSI

*Sotiboldiyev Dilhayot Qobuljon o‘g‘li*

*Qo‘qon DPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada g‘azal janrining tavsifi, o‘zbek adabiyoti ijodkorlari tomonidan yaratilgan g‘azallarning qisqacha sharhlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘azal, she‘riy san‘atlar, yor, oshiq, timsol, ijodkorlar.

G‘azal (arabcha: oshiqona so‘z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish) – Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr “g‘azal” atamasi dastlab VIII-IX asrlarda arab she‘riyatida paydo bo‘lgan. So‘ng O‘rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyotlariga o‘tib, X asrda forsiy adabiyotga, XIV asr boshlarida turkiy adabiyotga kirib kelgan. Hajmi 3 baytdan 19 baytgacha qilib belgilangan. Lekin 21, hatto 27 baytli g‘azal ham uchraydi. [8]

O‘zbek adabiyotining yetuk ijodkorlari tomonidan yozilgan ayrim g‘azallarni ko‘rib o‘tamiz.

**Zahiriddin Muhammad Bobur.**

*Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,  
Tiya bo‘ldi ro‘zg‘orim ul qaro qoshdin yana. [97]*

-V-- / -V-- / - V - - / - V-

Foilotun foilotun foilotun foilun.

G‘azal ramal bahrida, ya‘ni ramali musammani mahzuf tarzida yozilgan. Boburning ushbu 5 baytli g‘azali oshiqona, ishqiy ruhda yozilgan bo‘lib, ma‘shuqaning sochlari oshiqning aqlini o‘g‘irlagan. Bir maromda ketayotgan hayoti “ul qaro qosh” tufayli qorong‘ulikka mahkum bo‘ldi, zulmatga asir bo‘ldi. Oshiq ma‘shuqadan “yuz yomonliq” ko‘rgan bo‘lsa ham, shu ma‘shuqa uchun telba bo‘lganini yashirmaydi, nima bo‘lsa ham o‘sha parivash uchun faqat yaxshilik tilaydi. Garchi ma‘shuqa uyida oshiqdan holi bo‘lib o‘tirsam ham, oshiq ma‘shuqasini qidirib tolmasligini, toshdan toshga, tog‘dan tog‘ga, yurib ma‘shuqasini izlanishini aytib o‘tadi. Agar mumkin bo‘lganda bosh olib borsa kelmas joylarga ketmoqchi bo‘lgan oshiqning aqlini, o‘sha ma‘shuqasining go‘zal sochlari o‘g‘irlagan. G‘azal go‘zal o‘xshatmalarga juda boy. G‘azalda — **husni ta‘lil, istiora, ishtiyoq, tazod, tashxis** kabi she‘riy san‘atlardan mahorat bilan foydalanilgan.

**Turdi Farog‘iy.**

*Bir sori uzm ayla joyi nomusulmondur bu mulk,  
Fitnayi avboshu zulm kufru tug‘yondur bu mulk. [160]*

Biz Vatan haqida yozilgan ko‘plab faxriya she‘rlarni, g‘azallarni o‘qiganmiz, ko‘rganmiz. Turdi Farog‘iyning ushbu “Bu mulk” g‘azali esa ma‘rifatsizlik, razolat

botqog‘iga botib borayotgan, mamlakat aholisi islom dinida, mamlakat islomiy mamlakat, islomiy qoidalarga tayangan mamlakat bo‘lsa ham, qilinayotgan ishlar, ro‘y berayotgan holatlar kofirlar to‘dasining qilmishlariga o‘xshab qolgan, mamlakatda o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, zulm, kufr, g‘ayriislomiy illatlar ko‘paygan mamlakat haqida yozilgan. Bu illatlarning sababini Turdi Farog‘iy, Subxonqulixonning yuritayotgan siyosati, xalqqa e‘tibor berilmayotgani bilan izohlaydi. Ushbu g‘azal Turdining achchiq anduh bilan yozilgan, qo‘rqmay yozilgan, mamlakatning qoloq tomonlarini ochib berib yozilgan g‘azalidir. Baytda **tanosub, tashbeh, tashbeh, epifora** kabi she‘riy san‘atlar qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Bu mulk” – kekin tanqidiy ruhdagi asar. U davrning hayotiy haqiqatini tanqidiy nuqtai nazardan aks ettiradi. Vatan haqidagi faxriya asarlarning har bir satr va baytlari mulku millatning biror fazilatini ulug‘lashga bag‘ishlansa, ushbu g‘azal foje illatlarni izchil fosh etishga qaratilgan. [161]

### Shermuhammad Munis

*Do‘stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,  
Siz ichib sahbo, meni xunxori hasrat qilmangiz. [130]*

Munisning ushbu g‘azali do‘stlik, vafo haqidagi go‘zal namuna sanaladi. Shoir insonlar o‘rtasida, do‘stlar o‘rtasida sadoqat, ishonch mustahkam bo‘lishini, samimiylik kabi tuyg‘ularning o‘rni kattaligini ta‘kidlaydi. Birinchi baytda shoir do‘stlarini usiz bazm qilmaslikka chorlaydi, do‘stlari may og‘ushidan mast bo‘lsa, shoir qayg‘udan, alamda yolg‘iz qolishi noo‘rinligini ta‘kidlaydi. Agarda lirik qahramonimizsiz bazm qilinsa ham, qahramonimizni eslashmasa, yodga olishmasa, ko‘ngli ranjishini, bordiyu, bazmda nodonlar yig‘ilsa bu davradan uzoq turishni, donolar, donish ilmi sohiblari bor davraga yig‘ilishni, yomon kunda do‘stidin yuz o‘girmaslik kerakligini yozib o‘tadi, Munis. Ya‘nikim, do‘st do‘stini yomon kunda ham, yaxshi kunda ham tashlab ketmasligini aytiladi. G‘azalda quyidagi she‘riy san‘atlardan mahorat bilan foydalanilgan: **nido, ishtiyoq, takrir, tanosub, tashbeh, tazod** kabi.

### Boborahim Mashrab

*Namangondin ketar bo‘lsam, meni yo‘qlar kishim bormu?  
G‘ariblik shahrida o‘lsam, meni yo‘qlar kishim bormu? [213]*

Boborahim Mashrabning ushbu “Namangondin ketar bo‘lsam” g‘azali “Qissai Mashrab”da “Namangan shahridan ketsam, meni yo‘qlar kishim bormu?” tarzida beriladi va Ofoq Xojaning huzuriga borayotganda, “Langar” mozoridan chiqib, o‘z holiga bu g‘azalni aytilar deyiladi. Boborahim Mashrabning ushbu go‘zal bir g‘azali, o‘z tug‘ilgan yeridan ketayotgan, iztirob bilan Vatanini tark etayotgan lirik qahramonni ko‘z o‘ngimizda aks ettiradi. Bilamizki, Mashrab muhabbat bilan tug‘iladi, yana qanday muhabbat Ollohga bo‘lgan muhabbat singdiriladi uning qalbiga, u yuragi ishqdan to‘lib-toshib, bir joyda tura olmaydi, Xoja Ofoq huzuriga boradi va bu yo‘lda

o‘ziga yo‘ldoshlar qidiradi. Shu yo‘lda qavmu qarindoshini, yaqinlarini qidiradi, birga bo‘lishini xohlaydi. Yana shuni ham aytib o‘tish kerakki, Mashrab “bu foniy dunyodan kechgan”, dunyoning lazzatlaridan ko‘ngli sovigan. Yolg‘izgina ilinji, Uning visoliga yetishdir. G‘azalda quyidagi she‘riy san‘atlar qo‘llanilgan: **Radd-ul-aruz ilal-ajuz, tanosub, tashbeh, musajja’, takrir kabi.**

### Nodirabegim.

*Nigori gulbadanimni tushumda ko‘rsam edi,  
Labi shakarshikanimni tushumda ko‘rsam edi.*

Nodirabegimning ushbu go‘zal g‘azalini, yorini tushida ko‘rmoqligini tilagini ma‘shuqaning dil izhori desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Nodirabegim o‘z g‘azalida go‘zal o‘xshatishlar qilganligini ko‘rishimiz mumkin: yorning g‘amida qolgan ma‘shuqa o‘zining ko‘nglini taroqning nishlariga o‘xshatganligini, o‘z yorining yuzini gulga, qaddini shamshodga, ko‘zlarini nargisga qiyoslaganini, “hamisha bulbuli ta‘bim fig‘onu zor et”ganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘z yorining diydoriga to‘ymagan ma‘shuqa, kerak bo‘lsa tushida ham o‘sha yorini ko‘rish uchun intizor ekanligini yaqqol sezamiz. Nodirabegim g‘azalining so‘nggi baytida “Amiri safshikanini” tushida ko‘rishini orzu qiladi. G‘azalda ushbu she‘riy san‘atlar qo‘llangan – **talmeh, tashxis, husnu ta‘lil, epifora, tashbeh** kabi.

### Ogahiy

*Ey yuzing shavqi tanimdin oldi jon, bir bo‘sa ber,  
Vay labing zavqi ichimni qildi qon, bir bo‘sa ber. [6]*

Tasavvufiy ruhda bitilgan asarlarni o‘qish kishidan alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Ushbu g‘azalda ham lirik qahramon yorga yolborib: "Bir bo‘sa ber", deya o‘tinar ekan, bunda solih bandaning Allohdan lutf-u marhamat tilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu g‘azalda ham yorga murojaat, yor orqali Allohga bo‘lgan murojaatlarni ko‘ramiz. Xastalarga sening bo‘sang, hayot bag‘ishlaydi, meni ham shu ulug‘ baxtdan mahrum qilma, bo‘sang uchun men bor-budimni beraman, jonimni, jahonimni berishga tayyorman, agar odamlardan uyalib, ulardan hayo qilib bo‘sa bermasang, xilvat ichra kelib, nihoni bo‘lsa ham bo‘sangdan darig‘ tutma, men oshig‘ingni deb yozganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu g‘azalda quyidagi she‘riy san‘atlar qo‘llangan — tazod, husni ta‘lil, takrir, tashhis, mubolag‘a, g‘ulu kabi.

### Amiriy

*To ko‘zung oshiqlara nozu itob ustindadur,  
Ayni xurshidi latofatdurki, tob ustindadur. [69]*

Qo‘qon adabiy muhitining yetakchisi, adabiy muhitni kamolotga yetkazgan ijodkor Amiriyning ushbu g‘azali o‘z yorini ta‘riflagan oshiqning dil izhorlaridir. G‘azalda kitobat san‘atining noyob namunalarini kuzatamiz:

*“Sarvi qadding sho‘xliqidin, bir nafas sokin dugul,  
Ul “alif” yanglig‘ki doim, iztirob ustindadur”* yoki

*“Otashin ruhsoralar, ko‘nglumni yuz dog‘ ettilar,*

*Muncha “kof”i kiyna bir kuygan kitob ustidadur”. [69]*

Shuningdek g‘azalda quyidagi she‘riy san‘atlar qo‘llanilgan: **tazod, tashbeh, mubolag‘a, husni ta‘lil, istiora, tashxis** kabi.

Oshiqning ko‘ngli yor tufayli pora-pora bo‘lgan, ma‘shuqasining qoshlari yuziga shunday oro berib turibdiki, xuddikim oftob ustida turganday ko‘rinadi oshiq uchun. Qanchadan-qancha ruhsoralar oshiqning dilini o‘g‘irlashga urinishmoqda, ko‘nglini asir etishga harakat qilishmoqda, biroq oshiq uchun boshqa ma‘shuqa kerak emas.

### Uvaysiy

*Zamona kufatidin bu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,*

*Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi. [94]*

Uvaysiy she‘rlarida charx zulmidan, zamona ahlining johilligi yu nodonligidan shikoyat qilish ohanglari ham ko‘plab kuzatiladi. Xususan, ushbu g‘azalda shoiraning bag‘rida qon bo‘lib turgan, gulga aylanolmayotgan g‘uncha turganligi, ko‘ngillar qaysidir bog‘larning andaliblari yoxud, qaysidir ko‘ngli kir kimsalar tufayli dog‘ bo‘layotganidan shikoyat qiladi. Xuddikim, Turdi Farog‘iyning “Bu mulk” g‘azali kabi ushbu g‘azalni ham haqiqat kuylangan g‘azallar safiga qo‘shsak bo‘ladi. Ushbu g‘azalda **mubolaga‘** san‘ati ko‘p o‘rinda uchraydi, hamda **tazod, ishtiyoq, musajja‘, tashxis, tashbeh** kabi she‘riy san‘atlar qo‘llangan.

### Nishotiy

*Ey pari tokay hayoti chashmi fattoning bo‘lay,*

*Yuzdin ol burqa‘ni, bir dam mahbi hayroning bo‘lay... [382]*

Nishotiyning ushbu g‘azali yorga ko‘nglini ochayotgan oshiqni ko‘z oldimizga keltiradi. Sening hayotingning yarmiga aylanayin, yuzingdagi pardalarni ol, senga hayron bo‘lib qolayin, deya iltijo qiladi. Shoir g‘azalda bir necha o‘rinda yorning yuziga ishora qiladi, shoir yorining visoliga yetish uchun urinadi. G‘azalda kitobat san‘atining go‘zal namunasini uchramiz:

*“Qomati qoshing alif nuniki, ondindir nishon,*

*Ko‘zguz ul qad birla qoshni, bandasi oning bo‘lay” [382] deydi shoir.*

G‘azalda yana **tashbeh, mubolag‘a, husni ta‘lil, tashxis** kabi san‘atlar qo‘llanganini ko‘ramiz.

Ko‘rib o‘tganimizdek o‘zbek adabiyotida g‘azal janrining yetuk namunalarini, go‘zal o‘xshatishlarni, tasvirlashlarni uchramiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amiriy. Devon. O‘zbekistn “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1972. B: 69
2. Boborahim Mashrab “Mehribonim qaydasan”. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1990. B:213.

3. N.Jumaxo'ja, I.Adizova "O'zbek adabiyoti tarixi" (XVI-XIX asr I yarmi). Toshkent – "Noshir" 2019. B: 160, 161.
4. Nishotiy. She'rlar. B:382.
5. Shermuhammad Munis Xorazmiy. Saylanma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980. B: 130.
6. Tafakkur.net
7. Uvaysiz she'riyatidan. (Tuzuvchi mahbuba Qodirova) Toshkent – 1980. B:94.
8. Vikipediya. G'azal. 1- mart, 2024- yil.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Turkiy adabiyot durdonalari. "O'zbekiston" Toshkent – 2022. B: 97.